



SOME REFLECTIONS ON THE FORMATION AND HISTORICAL STAGES OF THE TOURISM SECTOR IN UZBEKISTAN

Akbar Davurbayevich Bababekov

Associate Professor, National University of Uzbekistan

PhD in History

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Tourism, ethnographic tourism, formation of tourism in Uzbekistan, theoretical, ethnocultural, anthropology of tourism, guest-host.

Received: 19.06.26

Accepted: 20.06.26

Published: 21.06.26

Abstract: Ethnographic tourism, recognized in many countries of the modern global world, is one of the key branches of cultural and educational tourism. This direction of tourism serves as a catalyst for human worldview expansion, cultural comparison, and the exploration of the history and nature of one's own country, while introducing travelers to diverse ethnocultural traditions and values. In this regard, this article focuses on the stages of formation and development of tourism in Uzbekistan, particularly its historical and ethnographic sectors, and is comprehensively illuminated based on documents from the Central State Archive of the Republic, ethnographic field research, and scientific literature.

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY BOSQICHLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Akbar Davurbayevich Bababekov

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti

t.f.f.d (PhD)

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Turizm, etnografik turizm, O'zbekistonda turizm shakllanishi, nazariy, etnomadaniy, turizm antropologiyasi, mehmon-mezbon.

Annotatsiya: Zamonaviy global dunyoning ko'plab mamlakatlarida e'tirof etiluvchi etnografik turizm - madaniy-ma'rifiy turizm yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Turizmning ushbu yo'nalishi insonning dunyoni bilishi, madaniyatlarni qiyoslash, o'zi

yashayotgan mamlakat tarixi va tabiatini o'rganish, turli etnomadaniy an'ana va qadriyatlar bilan tanishish omili hisoblanadi. Shu ma'noda turizm ayniqsa, tarixiy-etnografik turizm yo'nalishining O'zbekistonda shakllanishi va rivojlanishi bosqichlariga bag'ishlangan mazkur maqola Respublika Markaziy Davlat arxivi fondlaridagi hujjatlar, dala etnografik tadqiqotlar hamda ilmiy adabiyotlar asosida yoritib berishga bag'ishlangan.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О ФОРМИРОВАНИИ И ИСТОРИЧЕСКИХ ЭТАПАХ СФЕРЫ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Акбар Давурбаевич Бабабеков

Доцент Национального университета Узбекистана

Доктор философии (PhD) по историческим наукам

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Туризм, этнографический туризм, формирование туризма в Узбекистане, теоритический, этнокультурный, антропология туризма, гост-хозяин.

Аннотация: Этнографический туризм, признанный во многих странах современного глобального мира, является одним из направлений культурно-просветительского туризма. Данное направление туризма служит фактором познания мира человеком, сопоставления культур, изучения истории и природы страны своего проживания, а также знакомства с различными этнокультурными традициями и ценностями. В этом смысле настоящая статья, посвященная этапам формирования и развития туризма в Узбекистане, в частности историко-этнографического направления, базируется на документах фондов Центрального государственного архива Республики, материалах полевых этнографических исследований и научной литературе.

Kirish. Ma'lumki, hozirgi globallashuv sharoitida dunyodagi barcha xalq va millatlarning tarixi, kundalik hayoti va oilaviy-maishiy turmush tarzi, o'ziga xos etnomilliy an'analari, urf-odatlar xorijlik turistlar uchun qiziqarli, jozibador sayyohlik brendiga aylanib bormoqda. "Hozirgi kunda butun dunyoda etnik madaniyatga qiziqish, etnik o'zini – o'zi anglash o'smoqda. Etnomadaniy merosni, o'ziga xoslikni, madaniy xilma-xillikni saqlash, turizm va madaniyatning

o‘zaro faoliyati muammolariga e‘tibor kuchayib bormoqda”[1, 14] va uni ilmiy asosda o‘rganishni ilmiy zaruriyatga aylantirmoqda.

Adabiyotlar sharxi. Turizm “kishilarning qator ma‘naviy va amaliy ehtiyojlarini qondirish taqozosi bilan vujudga kelgan”[2, 11]. “Zero, etnomadaniy turizm madaniy almashuv, boshqa mamlakatlar xalqlari madaniyati haqidagi ma‘lumot beradi, buning yordamida har bir kishi turli etnik guruhlarning urf-odatlarini va madaniyati bilan tanishishi mumkin”[3, 13].

Iqtisodchi olim X.M.Mamatqulovning qayd etishicha, “turizm – turli xalqlar, elatlar va hududlarning urf-odatlarini, madaniyati va turmush tarzini o‘rganishga bo‘lgan harakat, intilishlar insonlarni sayohat qilishga undaydi. Masalan, turli xalqlarning urf-odatlarini, turmush tarzi, milliy taomlari, kiyim-kechaklari, ro‘zg‘or buyumlari, madaniy-tarixiy obidalari turizm sohasiga eng ommalashgan xizmat ko‘rsatish turlari sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda”[4, 32.]. Rus olimi Ye.Trofimovning fikricha, “Etnografik turizm – bu turli xalqlarning an‘anaviy madaniyati va hayotining xususiyatlarini saqlab qolgan mavjud aholi punktlariga tashrif buyurish, shuningdek, xalq hayotini aks ettiruvchi ochiq osmon ostidagi “jonli” muzeylar, o‘ziga xos folklorlari bilan tanishish”[5, 2] imkonini beradi. Hududda etnografik meros elementlari qancha ko‘p bo‘lsa, uning turizm uchun jozibadorligi darajasi shuncha yuqori bo‘ladi.

Muhokama va natijalar. Shu o‘rinda turizmning shakllanishi, vujudga kelishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlari etnografik bilimlarning o‘ziga xos paydo bo‘lishi, zarur ma‘lumotlar to‘planishi, faktlar anglab olinishi bilan bog‘liq bo‘lganligini qayd etish lozim. Bizning fikrimizcha, turizmning shakllanishi va rivojlanish tarixini shartli ravishda o‘ziga xos quyidagi bosqichlarga: 1) qadimgi va o‘rta asr (uyg‘onish davri) sayohatlari davri; 2) 1815-1919 yillar; 3) 1920-1949 yillar, 4)1950-1970 yillar; 5)1970-1990 yillar; 6) 1991-2016 yillar; 7) 2017-yildan hozirgacha bo‘lgan davrlarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Turizm shakllanishining birinchi bosqichi - qadimgi (antik davr) va o‘rta asr (uyg‘onish davri) sayohatlari davriga to‘g‘ri keladi. Turizmning vujudga kelish omillari va davrlari ijtimoiy turmush, madaniy hayot va mehnat jarayonlari bilan bevosita bog‘liq[6, 7] bo‘lib, uning tarixi Gerodot (mil.avv. V asr) va Strabon (mil.avv. 64 yil) singari olimlar yashagan qadimgi antik davrga borib taqaladi.

Qadim zamonlardan beri inson o‘zining tug‘ma qiziquvchanligi va tevarak atrofida, undan tashqarida nimalar borligini bilishga bo‘lgan intilishi, uni sayohat va kashfiyotlarga chiqishga undab kelgan[7, 1]. Turizm qadim davrlardan boshlab insonlarni yangi o‘lkalarni kashf etishga, dunyoni ko‘rish va bilishga, savdo-sotiqni rivojlantirish, madaniy va diplomatik aloqalarni o‘rnatish maqsadi yo‘lidagi sa‘y-harakatlariga xizmat qilib kelmoqda. Jumladan madaniyatlar va sivilizatsiyalar tutashgan, ko‘plab savdo karvonlari yo‘llari kesishgan, “Buyuk Ipak yo‘li”

chorrahasida joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasi bu jarayonda muhim o‘rin tutgan. Miloddan avvalgi II asrda ochilgan “Buyuk Ipak yo‘li” karvon yo‘li nafaqat savdo-sotiq uchun, ayni paytda dunyo xalqlari orasida madaniy – ma’rifiy va ilm-fan, tajriba almashuv yo‘li hamda sayyohlikning ilk ko‘rinishi sifatida paydo bo‘lgan.

Milodiy VII-VIII asrlarga kelib, mintaqaga islom dini kirib kelishi bilan uning farzlaridan biri hajga borish hisoblanib, movaraunnahrliklar o‘z yurtlaridan chiqib, Afg‘oniston, Eron, Iroq, Suriya orqali o‘tib, Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina shaharlariga haj amallarini bajarganlar. Bu yo‘l og‘ir mashaqqatli va bir necha oy va yillarni o‘z ichiga olgan bo‘lsada, yildan-yilga hajga boruvchilar soni ortib borgan.

Ziyoratchi-olimlarning mashhuri deb buyuk muhaddis Imom Ismoil al-Buxoriyini tan olamiz. U 17 yoshida onasi bilan hajga borib bir necha yil Arabistonda yashaydi. U fiqh hadislarini yig‘ish maqsadida Bag‘dod, Damashq, Balx, Nishopur, Misr va boshqa ko‘pgina arab shaharlarida 40 yil davomida sayyohat qilib, hadislarni to‘playdi. Bunga Imom al-Buxoriyning zamondoshi Abu Iso at-Termiziyni ham misol keltirishimiz mumkin[8, 47].

Ko‘p asrlik tarix guvohki, qadimdan insonga savdoni rivojlantirish, yangi yerlarni ochish va o‘zlashtirish, resurslar va yangi transport yo‘llarini izlab topish maqsadida jahon bo‘ylab sayohat qilish xos bo‘lgan. “Eng qadimgi sharq mamlakatlarida uzoq-yaqin qo‘shnilar bilan samarali savdo-sotiq munosabatlarini o‘rnatish, shuningdek, ularga qarshi muvaffaqiyatli urushlar olib borish uchun ham, birinchi navbatda etnologik bilimlar zarur edi” [2, 11].

Tarixdan yangi qit‘a va yerlarni, xalqlar va tabiiy hodisalarni ochgan, o‘ziga xos geografik tizimlarni asoslab bergan buyuk sayohatchilarning nomlari bizga ma’lum[10, 3]. Sayohatlarning katta qismi yangi savdo yo‘llarini, yangi yer va mamlakatlarni ochish maqsadida amalga oshirilgan. Buyuk arab olimi va sayohatchi Ibn Batuta (1304-1368 yy.) 21 yoshidan sayohat qilishni boshlagan va sharqning barcha mamlakatlarini (70 ming chaqrimdan ortiq) piyoda bosib o‘tgan, Shimoliy Afrika mamlakatlari, Xitoy va Hindistonda bo‘lgan. U o‘zining mashhur “Rixle” deb nomlangan asarida ko‘plab mamlakat va savdo yo‘llarining geografik nomlarini, xalqlarning urf-odatlarini batafsil tasvirlab bergan. Italiyalik savdogar Marko Polo (1254-1324 yy.) 1271-1295 yillarda Xitoyga safar uyushtirib, u yerda 17 yil istiqomat qilgan va bu mamlakat haqidagi kamyob etnografik ma’lumotlarni to‘plab o‘zining kitobida aks ettirgan[11, 15].

Sayohatchilikning rivojlanishiga ziyoratchilar ham munosib hissa qo‘shganlar. Turli din vakillari bo‘lgan ziyoratchilar o‘z dinlarini yoyish va muqaddas joylarga borib ziyorat qilish maqsadida uzoq va mashaqqatli sayohatlarni amalga oshirganlar.

Insoniyat tarixining keyingi davrlariga kelib, ayniqsa, asosiy maqsadlari savdo-sotiq bo'lgan savdogarlarning karvon tuzib boshqa davlatlarga sayohat qilishi etnografik turizm shakllanishining ilk bosqichlari hisoblangan.

Turizmga oid bilimlar ayniqsa, etnografik turizmga Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin tez o'sib bordi. "Dunyo xalqlari haqidagi tasavvurlar yanada kengaydi. X.Kolumb (1491 y) Amerikani kashf etishi, Vasko de Gama (1497-1499 yy) Yevropadan Afrikaning janubi orqali Hindistonga dengiz yo'lini ochishi, F. Magellan (1519-1522 yy) dunyo aylana ilk sayohatlari insoniyatni yangi xalqlar, madaniyatlar bilan tanishtirdi"[12, 7]. Ayni paytda boshlangan yevropaliklarning mustamlakachilik siyosati etnografiya fani negizidagi etnografik turizmga tom ma'noda tamal toshini qo'ydi deyish mumkin.

K.Liberening ta'rificha, "Yevropada XVIII asrda turizm yangi ko'rinish oldi va sayyohlar tanishuv, davolanish va dam olish maqsadida hamda savdo – sotiq ahamiyatidagi sayohatlar tez o'sdi"[13, 85].

"XVII-XVIII asrda maktab o'quvchilarining Yevropa davlatlari bo'ylab piyoda sayohati tarixga "Buyuk turistik sayohat" bo'lib kirdi. Ular Londondan boshlab Ispaniya, Fransiya, Italiya va Gresiya davlatlarida bo'lishib, sayohat davomida har bir davlatning hayoti, turmush tarzi, urf-odati, madaniyati va san'ati tanishdilar"[14, 26].

Shunday qilib, "eng qadimgi davrlardan boshlab kishilar nafaqat o'zlarining balki tevarak atroflarda va uzoq yurtlarda yashovchi el-uluslar, ularning madaniyati, an'ana va marosimlariga qiziqib, ular to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishga harakat qilganlar"[15, 15] i tufayli etnografik turizmga oid dastlabki dalillar, bilim va zaruriy ma'lumotlar to'plana bordi.

Ikkinchi bosqich – 1815-1919 yillarni o'z ichiga oladi. Mazkur davrda turizm XIX asrning o'rtalarida ilmning alohida sohasi sifatida vujudga kelgan etnografiya fani negizida shakllandi. O'tgan bir yarim asrlik davrda O'zbekistonda turizm yo'nalishi murakkab, ayni paytda "o'zbek elining eng ajoyib an'alaridan, g'ururlanadigan milliy fazilatlaridan biri mehmondorchilik"[16, 65], "mehmon-mezbon-mehmonnavozlik" an'analari asosida yuksalish bosqichini bosib o'tdi va turizmni tashkil qilishga ilmiy tomondan yondashish boshlandi.

Turizm tarixining yilnoma(annal)larida "...manbalarda 1815-yilda Fransiya-Angliya o'rtasida maxsus turlar tashkil qilinganligi yoziladi. Yozuvchi va sayohatchi D. Galiniyani keng omma uchun Parijdan Londonga uyushtiriluvchi bunday turlarning tashabbuskori bo'lgan. 1829-yilga kelib sayohatchilar uchun maxsus tayyorlangan dastlabki yo'l ko'rsatkich K.Baedeker tomonidan tomonidan tayyorlangan va nashr qilingan bo'lib, u hozirgi kunda ham chop etilib, Yevropa bo'ylab sayohat qiluvchi turistlar o'rtasida keng tarqalgan"[17, 63].

Natijada, “1830-yil Manchester va Liverpool o‘rtasida jahonda birinchi temiryo‘lining ishga tushishi amalda sayohat uyushtirishning vaqt chegaralarini o‘zgartirib yubordi. Natijada, Angliyada 1841 yili Tomas Kuk uyushtirgan turistik marshrut dunyodagi birinchi ommaviy turistik sayohat sifatida tarixga kirdi. 1851-yili Angliyaning turli burchaklaridan kelgan inglizlarning Parijdagi ko‘rgazmada ishtirok etishini tashkillashtirib, 165 ming kishini olib kelishga musharraf bo‘lgan”[16, 63]. Tomas Kuk – turizm daromad manbai ekanligini amaliyotda ilk bor isbotladi. “1856 yildan boshlab Yevropa bo‘ylab turlar odatiy holga aylandi. E‘tiborli tomoni mazkur davrdagi turlar uzoq muddatli bo‘lib, besh oygacha davom etgan. Dastlabki 20 sayohatchi butun jahon bo‘ylab 220 kun davomida sayohat qilganlar. 1860 yilda Londonda o‘zining birinchi “Thomas Cook Trawel” nomli sayohat firmasini ochdi va Kukning firmasi 20 yil ichida faoliyatini kengaytirib Shimoliy Amerikaga ham sayohat uyushtirdi.

Shuningdek, Kuk turizm faoliyatlariga ko‘plab yangiliklarni olib kirdi. Ular jumlasiga, transport, mehmonxona va boshqa xarajatlarni o‘z ichiga olgan holda ommaviy sayohat qilish, kreditga sayohat qilish, yoshlar uchun ma‘rifiy, ishchilar uchun maxsus, dengiz orti mamlakatlarga sayohat, valyuta almashtirish operatsiyalari kabilarni sanab o‘tish mumkin.

Keyinroq mashhur rus etnograf olimi N.N.Mikluxo-Maklay (1846-1888 yy) Yangi Gvineya orolining sharqiy qirg‘oqlarida yashovchi papuaslarni o‘rganib o‘z nomini tarixda qoldirdi.

XIX asrning o‘rtalaridan turizm ommaviy va jamoaviy tashkillashtirilgan harakatga aylana bordi[17, 16]. Natijada turizmga oid ko‘plab ta‘riflar yuzaga keldi. Turizm tarixiga bag‘ishlangan darslik, qo‘llanma va tadqiqotlarning aksariyatida “turist” (sayyoh) atamasiga birinchi marta 1876 yilda nashr etilgan “XIX asrning umumiy lug‘ati” (“Dictionnaire universel du XIX sie‘cle”)da ta‘rif berilgan. Unda “turistlar – qiziqish yoki bekorchilik tufayli sayyohat qiladigan odamlar” deya ta‘riflangan[18, 10]. Shu bilan birgalikda, turizm tarixining yilnoma(annal)larida XVII-XVIII asrlarda Yevropa “Grant tur”ida qatnashgan yoshlarni “turistlar” deb atalganligi haqidagi ma‘lumotlar ham saqlanib qolgan.

Shunday qilib, XIX asrning o‘rtalaridan turizm ommaviy va jamoaviy tashkillashtirilgan harakatga aylana bordi va G‘arbiy Yevropa va Amerika davlatlarida turizm alohida boshqaruv va uyushtirilgan turistik guruhlar asosida rivojlana boshladi.

Uchinchi bosqich – 1920-1949 yillarni o‘z ichiga qamrab oladi. Mazkur davrda Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarining nihoyasiga yetishi bilan turizm qayta tiklana boshladi, xususiy mehmonxonalar (yuqori sinfdagi), dengiz bo‘ylarida dam olish maskanlari va kurortlar qurilishi jadallashdi. Turistlarga transportda xizmat ko‘rsatish tizimi yangicha ko‘rinishga ega bo‘ldi.

O‘zbekistonda bugungi kundagi turizm tushunchasini anglatuvchi sohaning dastlabki shakllanishi davri ham asosan XX asrning birinchi choragiga to‘g‘ri keladi. “1925-1930 yillarda Markaziy Kasaba uyushmalari kengashi qoshida maxsus turistik jamiyat, ya’ni ishchi-dehqonlar turizm tashkilotini ta’ sis etgan. Bu jamiyat asosan mehnatkashlarning turli shaharlarga salohiyatini (ekskursiya) uyushtirish, o‘lkani o‘rganish kabi tadbirlar bilan shug‘ullangan. Shuningdek, dam olish kunlari ommaviy ravishda shahar atroflariga piyoda chiqish, chang‘ida yurish, velosipedda sayr qilish kabi amaliy faoliyatlarni tashkil qilgan. Ularning asosiy maqsadi jismonan chiniqish, mehnat faoliyatini oshirish va mudofaa ishlariga tayyorgarlik ko‘rishdan iborat edi”[19, 8].

Birinchi jahon urushigacha xorij turizmida aksariyat yuqori tabaqali boyroq aholi qatlami qatnashgan bo‘lsa, urushdan so‘ng o‘rta hol aholi qatlami uchun ham davrda turistik sayohatlar asosan dengiz va dengiz bo‘ylari qirg‘oqlari hamda dam olish uylariga uyushtirila boshlandi. Mazkur davrda asosan Fransiya, Italiya, Shveysariya kabi davlatlarda turistik faoliyat rivojlangan.

Birinchi va Ikkinchi jahon urushi yillari oralig‘ida turistik sayohatlar o‘ziga xos yangi mazmun kasb etdi. Endilikda turistlar tomosha va dam olish bilan birgalikda tanishuv maqsadlari, qadimiy yodgorliklar, arxitektura, san‘at, madaniy yodgorliklarni o‘rganishni ham o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar[13, 27].

Biroq, Ikkinchi jahon urushi yillarida dunyo miqyosida xalqaro turizmning o‘shish sur‘atlari nihoyatda pasayib ketdi. Birinchi jahon urushi va davrida yiliga xalqaro turizmga 18-19 mln. kishi mashg‘ul bo‘lgan bo‘lsa, 1947 yilga ushbu faoliyatda 16,6 mln, 1949 yilda esa 20 mln. kishi qatnashdi. G‘arbiy Yevropada XX asrning ikkinchi yarmidan keyin “ichki Yevropa xarakteri”ga xos turizm rivojlandi[20, 30].

To‘rtinchi bosqich – 1950-1970 yillarni o‘z ichiga qamrab oladi. Mazkur davrda ya’ni, Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan turizm qaytadan oyoqqa tura boshladi. Turizmga integratsion jarayonlar kirib kela boshladi. Bronlashtirishning hozirgi zamon kompyuter tizimi - Computer Reservation System (CRS)ga asos solindi. Havo transportida rezervlashtirish tizimlari (“American Airlenes” va “United Airlines” kompaniyalari) yaratildi.

Mazkur bosqichda turizm atamalari bilan bog‘liq muammolarining yechimini topish bir qator xalqaro konferensiyalar sho‘ba mavzusiga aylana bordi. Jumladan, 1950 yil Dublin shahrida, 1957 yil London shahrida o‘tkazilgan Xalqaro turizm tashkilotlari rasmiy ittifoqi yig‘ilishlarida, hamda BMTning xalqaro turizm va sayyohatlar bo‘yicha konferensiyasida (Rim, 1963 yil) va Jahon turizmi bo‘yicha konferensiya (Manila, 1986 yil), Turizm bo‘yicha

parlamentlararo konferensiya (Gaaga, 1989 yil) va forumlarni misol sifatida keltirish mumkin[21, 384].

BMTning 1963 yil Rim shahrida o'tkazilgan "Xalqaro turizm va sayyohat" bo'yicha konferensiyasida xalqaro turizm tashkilotlari ittifoqi tomonidan taqdim etilgan tavsiyalarni e'tiborga olgan holda, "tashrif buyuruvchilar (visitors)", "sayyohlar" (tourists), "ekskursantlar" "bir kunlik tashrif buyuruvchilar" (excursionists, day-rippers, same-day visitors)" kabi atamalarning yagona reestri qabul qilindi[22, 3].

Buyuk Britaniyada Turizm instituti (keyinchalik Britaniya turizm jamiyati nomini oldi) 1976 yilda quyidagi ta'rifni taklif qildi: "Turizm - bu odamlarning doimiy yashash va ish joylaridan tashqaridagi yo'nalishlarga vaqtinchalik qisqa muddatli harakatlanishi, shuningdek ushbu yo'nalishlarda bo'lish vaqtidagi harakatlar; u barcha maqsadlar uchun sayohatni, shuningdek, bir kunlik tashriflar va ekskursiyalarni o'z ichiga oladi[23, 4].

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, AQSh va Lotin Amerika mamlakatlarida turizmning turli yo'nalishlari qatori etnografik turizm turizm antropologiyasi nomi bilan yangi yo'nalish sifatida shakllandi va rivojlandi. Natijada, turizm antropologiyasiga doir dastlabki ilmiy tadqiqot ishlari paydo bo'ldi. Turizm antropologiyasi yo'nalishi bo'yicha birinchi ilmiy maqola AQShda 1963 yilda A.Teron, J.Nuneslar tomonidan "Turizm, an'ana va akkulturatsiya"[24, 347] nomi bilan nashr etilgan. Mazkur maqolada mualliflar Meksika qishlog'idagi milliy an'analarning turizm bilan ayrim o'zaro bog'liqliklari masalalarini tahlil qilganlar.

XX asrning ikkinchi yarmidan keyin sobiq Ittifoqda ham turizmga nisbatan jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Ushbu turistik sayohatlarni asosan sobiq sotsialistik davlatlarga uyushtirishni ko'zda tutdi. Bu hukmat 1969 yil 26 iyun ittifoqdosh respublikalarda turizmni rivojlantirish to'g'risida farmon chiqardi. Shundan keyingi yillar davomida Hamdo'stlik davlatlarida turizm shakllana boshladi.

"O'zbekistonda 2-jahon urushidan keyingi yillarda (1950-1960 yillar) Markaziy Kasaba uyushmalarining tashabbusi bilan barcha viloyatlarda va ularning quyi tarmoqlarida turistik klublar tashkil etildi. Klublar turizm bo'yicha (piyoda yurish, tog' turizmi, velosiped turizmi va h.k.lar uyushtirish) sesiyalar, to'garaklar, jamoalar tashkil etib, musobaqalar tashkil etishga kirishdi. Keyingi 30-40 yil davomida (1955-1990 yillar) Respublikalar, hududlar (Markaziy Osiyo, Kavkaz, Boltiqbo'yi, Ural, Sibir va h.k.) miqyosida slyotlar (musobaqalar) tashkil etildi. Ularning dastur mazmunida kategoriyali (darajali) piyoda yurish, tog' so'qmoqlari va dovonlardan oshish, gulxan yoish, qo'shiq-raqs bo'yicha ko'rik tanlovlar o'tkazish kabi ko'p qirrali ijtimoiy-tarbiyaviy jihatlar o'rin egallagan edi. Bunday nufuzli turistik tadbirlar

boshlang'ich jamoalarda (ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va h.k.) ham u yoki bu darajada o'tkazishi odatga aylandi"[19, 9].

Beshinchi bosqich – 1970-1990 yillarni o'z ichiga qamrab olib, mazkur davr turizmida axborot-kommunikatsion texnologiyalar, global distribyutor tizimi (Global Distribution Systemes - GDS) keng joriy qilindi. Transmilliy kompaniya (TMK)lar turizmga (mehmonxona, ovqatlanirish, transportda) kirib keldi. Turizmida integratsion jarayonlar yangi rivojlanish bosqichiga kirdi.

G'arb mamlakatlarida etnografik turizm yo'anlishlaridan biri sifatida tan olinadigan turizm antropologiyasi bo'yicha dastlabki ilmiy tadqiqotlar XX asrning 70-yillaridan boshlandi. Yangi tadqiqot yo'nalishi sifatida AQSh, Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi davlatlarning yetakchi ilmiy markazlari va OTMLarida tadqiq etila boshlandi[25, 37]. Mazkur davrdagi turizm antropologiyasiga oid tadqiqotlar sirasiga Kohen (1972 y), Turner va Ash (1975), MakKannel (1976 y), Bissevain (1977 y), Smit (1977 y), Yong (1977 y), De Kadt (1979 y) kabi tadqiqotchilarning ishlarini misol qilib keltirish mumkin[21, 384].

Etnografik turizmni antropologik o'rganish keng quloq yoydi. Turizm antropologiyasining yuksalishini antropologiya va turizm sohalaridagi asosiy jurnallar orqali kuzatish mumkin. Masalan, turizm antropologiyasi sohasidagi ilk ilmiy "Turizm tadqiqotlari Annallari" (Annals of Tourism Research) jurnalda turizm va ijtimoiy fanlar bo'yicha birinchi maqola 1974 yilda nashr etilgan va "antropologiya" sarlavhali birinchi maqola 1977 yildan so'ng paydo bo'ldi. Ushbu jurnalning 1977 yilgi nashrida antropolog Smitning turizm va madaniy o'zgarishlarga bag'ishlangan ilk ilmiy maqolasi nashr etildi. 1979 yilga kelib esa, AQShlik antropolog Jafari Jafari 45 sahifali bibliografiyani jamlab, ushbu jurnalda chop etdi.

Antropologiya jurnallarida etnografik turizm haqida yozadigan antropologlar safi sekin ko'paydi deyish mumkin. Garchi, 1970-yillarda antropologlar turizm jurnallarida (Masalan, ATR) nashr qilishgan bo'lsada, bunday turizm antropologiyasiga oid ilmiy nashrlar antropologiya jurnallarida paydo bo'lishidan o'n yil o'tgach ko'paya boshladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, turizm antropologiyasini shakllanishi va rivojlanishida sotsiolog va antropologlarning tadqiqotlari muhim rol o'ynadi[26, 12].

Keyingi yillarda Viskonsin universitetining antropologiya kafedrasida professori Jeyms Silverberg AQSh ning Miluoki shaharchasida bo'lib o'tgan Markaziy Davlat antropologiya Assotsiatsiyasi yig'ilishida turizm antropologiyasi masalalari bo'yicha sho'ba tashkil qildi. Biroq, turizm antropologiyasi bo'yicha birinchi milliy simpozium faqat 1974 yilda Mexiko shahrida Amerika antropologiya assotsiatsiyasi ishtirokida bo'lib o'tdi. Shundan so'ng turizm antropologiyasi bir qator amerikalik antropologlar e'tiborini tortdi.

XX asrning 70-yillari oxirgi choragiga kelib, turizmning rivojlanib borishi jarayonida yuzaga kelayotgan ta'sirlar va bir qator salbiy oqibatlar haqida ham antropologik qarashlar, tadqiqotlar hamda hisobotlar dunyo yuzini ko'ra boshladi. Jumladan, turizmning mezbon mamlakat aholi(jamoa)siga ortib borayotgan ijtimoiy-madaniy salbiy ta'sirlari "proturistik" va "antituristik" qarashlar haqida Smitning (1977) "Mehmonlar va mezbonlar: Turizm antropologiyasi" asarini misol tarzida keltirib o'tish mumkin.

Shunday qilib, 1977 yilda Dennison Nesh[27, 21] va Nilson Grebarn[28, 47] AQShlik turizm tadqiqotchilarining eng sara ishlarini o'zida jamlagan birinchi ontologiya "Mezbonlar va mehmonlar: Turizm antropologiyasi" (Hosts and Guests: The Anthropology of Tourism) nomi ostida nashr etildi.

"O'zbekistonda esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari qatorida turizm sohasining markazlashgan ma'muriy boshqaruvi tizimi 1971-1991-yillar davriga to'g'ri keldi"[29, 9]. "Ma'lumki, 1987-1990-yillarda iqtisodiy ahvolning og'irligi, o'tish davridagi qiyinchiliklar tufayli turizm va ekskursiyalar sohasi hamda u bilan bog'liq tarmoqlarda davlat yoki kooperativ mulkning talanishi, moliyaviy jinoyatchilik holatlari soni ko'paygani tufayli turizm sohasi inqirozli holatga tushib qoldi"[30, 13]. "Bu davrda salbiy oqibatlar ham ko'zga tashlana boshlanadi. Qurilmay qolgan turistik-rekreations maqsadidagi ob'ektlar sonining ko'payishi, mavjudlarida esa mijozlarga ko'rsatilgan xizmatlarning sifati bo'yicha ko'plab e'tirozlar paydo bo'la boshladi. Ijtimoiy tadqiqotlarga ko'ra, mehmonxonalar, turbazalar, dam olish uylari hamda pansionatlar tomonidan taklif qilingan 50% gacha bo'lgan barcha xizmatlar fuqarolar noroziligini keltirib chiqargan. Joylashtirish xizmatlari bilan birga, hordiq chiqarish va tibbiy xizmat ko'rsatish talab darajasida bo'lmagan. Turistik xizmat turlari va hajmi sezilarsiz va sifatsiz bo'lgan"[29, 9]. Tadqiqotchi H.S.Murodovning yozishicha, "Mazkur munosabat esa O'zbekistonda salbiy oqibatlarga olib keldi. Birinchidan, mablag' kamligi tufayli milliy turizmning asosiy qiziqish manbasi bo'lgan tarixiy me'moriy obidalarni asrash, restavratsiya qilish hamda saqlab qolish borasidagi chora-tadbirlarni keskin kamayishi, oqibatida ko'plab merosiy obidalarimizdan ajralgan bo'lsak, ikkinchidan esa bu davrdagi sayyohlik sohaning juda cheklangan imkoniyatlari tufayli 1980 yillar oxirida respublikaning qariyb yigirma million aholisidan atigi 5 foiz sayyohlik xizmatlaridan foydalana olgan xolos"[30, 13].

Biroq ta'kidlash joizki, uzoq mustabid tuzum davrida qadimdan shakllanib kelgan sayyohlikning o'ziga xos xususiyatlari ancha yo'qolib ketgan edi.

Binobarin, sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi natijasida tashkil topgan mustaqil davlatlarda turizmning yangi yo'nalishlari vujudga kela boshladi. Afsus bilan aytish lozimki, 70 yillik qatog'onlik deb atalmish sovetlar davrida jahon turizmining nihoyatda rivojlanishi,

xo‘jalikning muhim tarmog‘i sifatida shakllanishi asosan G‘arbiy Yevropa, Amerika va Sharqiy Osiy davlatlarida ko‘zga tashlandi, bizda esa aksincha, u unchalik taraqqiy etmadi[13, 27]. “Sovet Ittifoqiga kiruvchi 15 ta davlatlar orasida aholisi soni bo‘yicha Rossiya va Ukrainadan so‘ng uchinchi o‘rinda bo‘lgan O‘zbekiston turizm rivoji borasida ancha orqada bo‘lib, Ittifoqdagi jami sayyohlik mehmonxonalar, bazalar, lagerlar va pansionatlar umumiy sonidagi ulushi atigi 3 foizni va dam oluvchilar soni bo‘yicha ham 3 foizlik ko‘rsatkich bilan bu borada o‘z salohiyatidan ancha past natijani qayd etgan”[31, 20].

Umuman olganda sobiq Ittifoq davrida O‘zbekistonda turizm va ekskursiyalar tizimi “yuqoridan berilgan ko‘rsatmalar” hamda kommunistik mafkura “xizmatkori” sifatida faoliyat ko‘rsatib kelishi natijasida hech qachon ijtimoiy iqtisodiy tashkilot yoki tizim sifatida o‘zini namoyon etmadi. Garchi, Respublikada turizm sohasining imkoniyatlari yuqori bo‘lsada undan samarali foydalanilmadi.

1970-1990 yillar O‘zbekistonda turizm sohasidagi muammo va kamchiliklar ham Ittifoq miqyosida, ham respublika, hatto viloyatlar darajasida yanada yaqqolroq darajada namoyon bo‘ldi. Ularning asosiylari quyidagilar:

- “Buyuk Ipak yo‘li” chorrahasida joylashgan O‘zbekiston Markaz nazaridan chetda bo‘lgan xom ashyo manbai “perefilya” hudud sifatida e‘tiborga olinishi tufayli, tarixiy-madaniy yodgorliklarni ta‘mirlash va restavratsiyalashga e‘tibor qaratilmaganligi;

- Turizm infratuzilmasining talabga umuman javob bermasligi va uni ta‘minlashga yetarli mablag‘ ajratilmasligi hamda transport servisi xizmatining to‘la shakllanmaganli va sifatining pastligi;

- “Inturist” tomonidan mehmonxonalarda xona va aviachiptalarni bron qilish majburiyatlarining tez-tez buzilishi;

- Ekskursiya dasturlarida mahalliy aholining kundalik to‘g‘risida ma‘lumotlar beruvchi etnografik turizm turpaketlarining yo‘qligi;

- Malakali mutaxassislar va gid tarjimonlar yetishmasligi (1975 yilda o‘tkazilgan so‘rovnomada qatnashgan 34,2 % turistlar transport va xizmat ko‘rsatish sohasida malakali mutaxassislar va gid tarjimonlar yetishmasligini qayd etgan[32, 12]);

- Kadrlar muammosi. O‘zbekistonda turizm sohasi bo‘yicha oli va malakali kadrlar tayyorlaydigan maxsus oliy o‘quv yurtlari faqat Toshkent va Samarqandda bo‘lgan;

- 1989-1990-yillardagi millatlararo munosabatlarning taranglashuvi va ekskursiyalarni tashkil etish imkoniyatlaridan amalda kam foydalanilganligi[33, 39];

- Turizm va ekskursiyalar tashkilotining mustaqil faoliyatiga yo‘l qo‘yilmaganligi (dastlab sport va fizkultura, so‘ngra kasaba uyushmalari ittifoqi boshqaruvida);

- 1987-1990-yillarda iqtisodiy ahvolning og'irligi, o'tish davridagi qiyinchiliklar tufayli turizm va ekskursiyalar sohasi hamda u bilan bog'liq tarmoqlarda davlat yoki kooperativ mulkining talanishi yoki moliyaviy jinoyatchilik holatlari soni o'sgani kabilardir[34, 182-195].

Biroq ta'kidlash lozimki, 1950-1990 yillarda O'zbekistondagi turizm sohasida nafaqat muammolar va kamchiliklar kuzatilgan, balki o'ziga xos ijobiy o'zgarishlar ham kuzatiladi. Jumladan:

- O'zbekistonda turizmning velosiped va piyoda yurish turi bo'yicha an'anaviy ommaviy yurishlar hamda sayohatlar boshlandi. Masalan, tadqiq etilayotgan hudud Jizzax viloyatida dastlab 1977-yilda ilk bor Forish tumani Uchma qishlog'ida joylashgan sport-sog'lomlashtirish maskanida birinchi piyoda yurish va velosport bo'yicha talabalar amaliyoti tashkil etilishini"[19,17] ni misol qilib keltirish mumkin.

- Turizm bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash maqsadida Samarqandda dastlabki turizm va ekskursiya bo'yicha universitet tashkil etildi;

- Dastlabki sayyohlik bazalari (Inturist) va komplekslar (Chimyon) tashkil topib, ulardagi o'rinlar soni ko'paydi;

- Yoshlar va bolalar turizmi tashkil topib, bolalar sog'lomlashtirish lagerlari vujudga keldi[35, 24]. Mahalliy sharoitda o'quvchi-yoshlar, talabalar va mehnatkashlarning sayr-sayohatlarini uyushtirish ham yuqori saviyada amalga oshirildi. Ayniqsa, yoshlarni sobiq Ittifoqning markaziy shaharlari (Moskva, Leningrad, Kiev va h.k.)dagi tarixiy-madaniy joylar bilan tanishtirish ishlari amalga oshirildi.

- Dastlabki zamonaviy mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari barpo etildi[36, 18];

- O'zbekistonda hozirgi kungacha davom etib kelayotgan ko'p kunlik sayohat marshrutlari yaratilib, 20 kunlik "O'zbekiston bo'ylab ekskursiya", 12 kunlik "O'zbekiston arxeologik yodgorliklari orqali" va 20 kunlik "O'zbekiston bo'ylab" ekskursiyalari uchun yo'nalishlar loyihalari ishlab chiqildi hamda amalga oshirildi[37, 89].

Oltinchi bosqich – 1991-2016 yillarni o'z ichiga qamrab oladi. Globallashtirish jarayonlarining vujudga kelishi natijasida "Zamonaviy turizm" tushunchasi qo'llanila boshlandi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida turizm sohasini rivojlantirishning huquqiy asoslari, turizmni rivojlantirish konsepsiyasi va dasturi hamda sohani rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlar ishlab chiqildi. Jumladan, 1992 yil 27 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekturizm" milliy kompaniyasini tashkil qilish to'g'risidagi farmoni qabul qilindi. 1992 yil sentabrda O'zbekiston xalq an'alarini va marosimlarini tiklash, tarixiy va madaniy yodgorliklarini saqlash, o'rganish va ta'mirlash hamda 2000 yilgacha bo'lgan davrda respublikada turizmni rivojlantirishning konsepsiyasi va dasturi tadiqlangan. 1999 yil 20

avgustda “Turizm to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilinishi O‘zbekistonda turizm rivojlanishini yangi pog‘anaga ko‘tarishda bosh huquqiy asos bo‘lgan. Ushbu hujjat qabul qilingunga qadar respublikada turizmni mustaqillik sharoitida tashkil etishning dastlabki bosqichi amalga oshdi[36, 52].

Mustaqillikning 2000 yillarida O‘zbekistonda turizmning boshqa sohalari qatori etnografik turizm sohasida xususan, ichki turizm aholidan e‘tibori katta bo‘lgan ziyorat turizmi, qishloq turizmi kabi yo‘nalishlarda ijobiy amaliy ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, bu davrda turizmning jahon YaIMda ulushi ortib bordi, hududlar eksport salohiyati oshirildi, investitsiyaning barqaror oqimi ta‘minlandi. Turizmda strategik alyanslar (mehmonxonalar, havo transportida) paydo bo‘la boshladi. Klaster usuli turizm qo‘llana boshlandi.

Yettinchi bosqich – 2017 yildan hozirgacha bo‘lgan yillar. Turizm raqamli innovatsion – texnologiyalar joriy qilina boshlandi. Hozirgi vaqtda AQShda etnografik turizm yo‘nalishi turizm antropologiyasi mavzusidagi ko‘plab ilmiy konferensiyalarda muhokama qilinmoqda. Universitetlarda ushbu fan bo‘yicha akademik kurslar o‘qitilmoqda. Ulardan eng mashhuri Nelson Grebar tomonidan Berkli shahridagi Kaliforniya universitetida o‘qitiladigan kurslardir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda jahonda turizm taraqqiyotining ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy ta‘sirini oshirish va salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida turizm sohasini barqaror rivojlantirishga ilmiy-nazariy asos yaratadigan zamonaviy tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Etnografik turizm sohasini barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida tadqiq etish, uning raqobatbardoshligini ta‘minlovchi omillarni o‘rganish iqtisodiyotning yangi va murakkab tadqiqot predmeti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, turizm sohasini iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirish, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish dastagi sifatida tadqiq etishda barqarorlik masalalarini chuqur o‘rganish va axborot texnologiyalarini keng tadbiq etish zamon talabiga aylanib boryapti.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бутузов А.Г. Состояние и перспективы развития этнокультурного туризма в Российской Федерации / А.Г. Бутузов // Сервис в России и за рубежом. - 2009. - №4. - С.11-15.
2. Жабборов И.М. Жаҳон этнологияси асослари. Дарслик. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 2008. – 352 б.
3. Сафарова Т.Р. Этномаданий туризмни ривожлантиришнинг ижтимоий-маданий омиллари. // 09.00.02-Онг, маданият ва амалиёт шакллари фалсафаси

(маданиятшунослик ва маданият фалсафаси) ихтиссослиги фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 13 б.

4. Mamatqulov X.M. Xizmat ko'rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug'ati. – Toshkent, "Iqtisod-moliya", 2010. 372 – b.

5. Трофимов Е. Н. Развитие этнографического туризма в России // Вестник РМАТ. 2013. №4 (10). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-etnograficheskogo-turizma-v-rossii> (Мурожаат санаси: 14.01.2024).

6. Xoldarov T, Tulenova X. Turizm (Sayyohluk). O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2016. 7-b. (– 144 b.)

7. Tourism anthropology. Blog-1, Understanding tourism, unit-1. Gunjan A, Zaman. R. Introduction to Anthropology and tourism. 2020. <http://egyankosh.ac.in/handle/123456789/65757>

8. Turizm: nazariya va amaliyot. - T.: "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018, - 47 b.

9. Ташмурадов Т. Туризм как индустрия отдыха, журнала "Экономика и жизнь", № 3, 1992 г.

10. Тўраев З.Н, Рўзиев О.А, Авлиякулов А.А., Бердиев С.Р. Халқаро туризм ва унинг ривожланиши. Ўқув қўлланма. – Термиз, 2009. – 15 - б.

11. Salimov T.U. Jahon xalqlari etnologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Vneshinvestprom", 2019. – 7 b. (144 b.)

12. Ердавлетов С.Р. География туризма: история, теория, методы, практика. - Алматы. 2000. – С. 85. (– 336 с).

13. Солиев А.С, Усмонов М.Р. Туризм географияси (Самарқанд вилояти мисолида) / Монография. – Самарқанд, "А.Навоий номидаги Самарқанд давлат университети" нашриёти, 2005. – 131 бет.

14. Ashirov A. Etnologiya. O'quv qo'llanma. Ikkinchi nashr. – Toshkent: "Yangi nashr", 2014. 15-b. (544 b.)

15. Жабборов И.М. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти (Этнотарихий лавҳалар). – Тошкент: "Ўқитувчи" нашриёти, 2003. -208 бет.

16. Mirzaev M.A., Alieva M.T. Turizm asoslari (O'quv qo'llanma). – Toshkent, "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2011. – 287 бет.

17. Воронкова Л.П. Глобализация туризма в антропологическом аспекте // Глобалистика и геополитика. Вестник Московского университета. Серия XXVII. 2015. № 1 / 2. – С. 16.

18. Theobald W.F. (Ed.) *Global Tourism*. Burlington: Elsevier Inc., 2005. - P. 10.
19. Xoldarov T, Tulenova X. *Turizm (Sayyohluk). O'quv qo'llanma*. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2016. 8-b.
20. Зачиняев. П.Н., Фалкович Н.С. *География международного туризма*. - М.: Мысл, 1972. -303 с.
21. Основы туризма. Учебник / коллектив авторов, под ред. Е.Л.Писаревского. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. - 384 с.
22. McBurney N. *Tourism*. Hertfordshire: Prentice Hall, 1996. - Pp. 3 – 4.
23. *Международный туризм: правовые акты* / Сост.Н. И. Волошин. - М.: Финансы и статистика, 2002. -С. 180.
24. Theron A., Nunez Jr. *Tourism, Tradition, and Acculturation: Weekendismo in a Mexican Village*. *Ethnology*. Vol. 2. No. 3 (Jul., 1963). - Pp. 347-352. Stable URL: <http://www.jstor.org/stable/3772866>
25. Smith V. L. *Hosts and Guests: The Anthropology of Tourism*. Philadelphia, PA: University of Pennsylvania Press. 1977. - Pp. 37–54; Nash, D. *The study of tourism: Anthropological and sociological beginnings*. Oxford: Elsevier. 2007.
26. Burns L. *An introduction to tourism and anthropology*. London: Routledge. 1999. - Pp. 12.
27. Dann, Graham M.S., Nash, Dennison and Pearce, Philip L. *Methodology in Tourism Research*. *Annals of Tourism Research*. 1988. 15:1-28; Nash, Dennison. *Anthropology of Tourism*. New York: Pergamon. 1996.
28. Graburn, Nelson H.H. *Tourism: The Sacred Journey*. *Hosts and Guests: The Anthropology of Tourism*. Valene L. Smith, ed. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1977. Pp. 33-47.
29. Boltaboev M.R, Tuxliev I.S, Safarov B.Sh, Abduxamidov S.A. *Turizm: nazariya va amaliyot*. – Toshkent, “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018. – 400 b.
30. Муродов Н.С. *Бухорода туризмнинг ривожланиши тарихи (1991-2021 йй) // 07.00.01-Ўзбекистон тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати*. – Бухоро, 2022. -52 б.
31. *Народное хозяйство СССР в 1988 г. Статистический ежегодник*. – Москва: “Финансы и статистика”, 1989. – С. 20.
32. Мансуров М.Ш. *Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараёнлари ва ҳолати (1980-2018 й)*. 07.00.01-Ўзбекистон тарихи ихтиссослиги бўйича автореферат. – Тошкент, 2020. – 12-б.

33. ЎМА, М-141-фонд, 1-рўйхат, 12-йиғма жилд, 39-варақ.
34. ЎМА, М-141-фонд, 1-рўйхат, 12-йиғма жилд, 182-195-варақлар.
35. Абдумаликов Р, Холдоров Т. Туризм. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1988. -24-38-б.
36. Тошкент шаҳрида 1958 йилда Ўзбекистон, 1982 йилда Чорсу, Бухорода эса 1974 йилда Бухоро, 1976 йилда Зарафшон, 1976 йилда Варахша ва Гулистон меҳмонхоналари барпо этилган. Муродов Н.С. Бухорода туризмнинг ривожланиши тарихи (1991-2021 йиллар) // 07.00.01-Ўзбекистон тарихи ихтиссослиги бўйича тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2022. – 53 б.
37. Эгамбердиева Г. Ўзбекистонда туризм соҳасини ислоҳ қилиш босқичлари (XX асрнинг иккинчи ярми – XXI асрнинг биринчи чораги). “ФарДУ. Илмий хабарлари – Научный вестник вестник. ФерГУ”. – Фарғона, 2020. № 2. 89-94- б.